Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH BO'YICHA TIZIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna

Bank - moliya akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0005-4492-8892

m.bekmurodova@infinbank.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida tijorat banklarida uchrayotgan muammoli kreditlar masalasi atroflicha o'rganilib, ularni kamaytirish hamda mavjud tizimlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Bugungi kunda banklar moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish uchun kredit risklarini to'g'ri boshqarishi, muammoli kreditlarning oldini olish va ularni vaqtida qaytarilishini ta'minlashi zarur. Shu bois, tadqiqotda kredit ajratish, monitoring va tahlil jarayonlarining samaradorligi, mavjud qonunchilik va bank siyosatlarini bilan bog'liq omillar chuqur tahlil qilindi. Bundan tashqari, xorijiy tajriba asosida solishtirma tahlillar olib borilib, O'zbekiston bank tizimi uchun mos va real shart-sharoitlarga moslashtirilgan takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari banklar faoliyatini yanada puxta tashkil etishga, muammoli kreditlar darajasini kamaytirishga va mijozlar bilan ishlashda barqarorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: tijorat, bank, kredit, muammoli kredit, qaytmaslik, risk, to'lov, mijoz, kredit ajratmalar, xodimlar, pul.

Abstract: In this research work, the issue of problematic loans found in commercial banks was studied in detail and practical proposals were developed to reduce them and improve existing systems. Today, it is necessary that banks correctly manage credit risks, prevent problematic loans and ensure their timely repayment in order to maintain financial stability. Therefore, the study thoroughly analyzed the effectiveness of credit separation, monitoring and analysis processes, factors related to existing legislation and banking policies. In addition, on the basis of foreign experience, comparative analyzes were carried out and proposals were developed that were suitable for the banking system of Uzbekistan and adapted to real conditions. The results of the study can serve to more carefully organize the activities of banks, reduce the level of problematic loans and increase stability in working with customers.

Key words: commercial, bank, credit, problematic credit, Non-Return, risk, Payment, Client, credit deductions, employees, money.

Аннотация: В данной исследовательской работе подробно изучен вопрос проблемных кредитов, встречающихся в коммерческих банках, разработаны практические предложения по их сокращению, а также по совершенствованию существующих систем. Сегодня для поддержания финансовой стабильности банкам необходимо правильно управлять кредитными рисками, не допускать проблемных кредитов и обеспечивать их своевременное погашение. Поэтому в исследовании был проведен углубленный анализ факторов, связанных с распределением кредитов, эффективностью процессов мониторинга и анализа, действующим законодательством и банковской политикой. Кроме того, на основе зарубежного опыта был проведен сравнительный анализ и разработаны предложения, адаптированные к реальным условиям, подходящим для банковской системы Узбекистана. Результаты исследования могут послужить более тщательной организации деятельности банков, снижению уровня проблемных кредитов, повышению стабильности в работе с клиентами.

Ключевые слова: коммерческий, банковский, кредит, проблемный кредит, невозврат, риск, оплата, клиент, кредит отчисления, персонал, деньги.

KIRISH

Tijorat banklari kreditlash amaliyotini takomillashtirilishi va zamonaviy usullarining oqilona qo'llanilishi kichik korxonalar va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hudud iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning, eng avvalo jamiyatni ijtimoiy va siyosiy yangilash, shuningdek aholi farovonligini va bandligini oshirish, ichki iste'mol bozorini milliy mahsulotlar bilan to'ldirish, ishlab chiqarishni sifat darajasiga ko'tarish va eksport salohiyatini oshirishning bosh dastagi hisoblanadi.

Xususan, tijorat banki uchun kredit foizining yuqori darajada ekanligi, ko'p jihatdan, doimiy bo'lib qolayotgan to'lovsizliklar bilan belgilanmoqda. Bankdan kredit olgan korxona, qiyosiy jihatdan barqaror moliyaviy ahvolga ega bo'lsa-da, o'zining intizomsiz hamkorlari tufayli to'lovsizliklar zanjiriga tortilib qolishi va buning natijasida esa, bankka kreditni qaytarish va unga foiz to'lash imkoniga ega bo'lmasdan qolishi mumkin. Bugungi kunda



to'lov aylanmasini amalga oshirish amaliyotini yanada takomillashtirish, uni zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mavjud amaliyotni tahlil qilish natijalari to'lov aylanmasini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab berish imkonini berdi:

to'lov aylanmasini yanada barqaror va tizimli mexanizmlar asosida tashkil etish zaruriyati mavjud;
iqtisodiy subyektlar o'rtasida to'lov intizomini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq;

to'lov operatsiyalarini iqtisodiy asoslarga tayanilgan holda amalga oshirishni rag'batlantirish orqali to'lov intizomini kuchaytirish imkoniyati mavjud;

ayrim vaqtlarda yuzaga kelayotgan to'lov kechikishlarini bartaraf etish uchun markazlashtirilgan nazorat va monitoring mexanizmlarini joriy etish lozim;

to'lov aylanmasining iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini yanada chuqur baholash va uning rolini oshirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim;

to'lov aylanmasini korxona va tashkilotlarni kreditlashda samarali instrument sifatida keng qo'llash orqali bank tizimidagi kredit xatarlarini kamaytirish mumkin;

xo'jalik subyektlaridagi qarz yukini qisqartirish va muddati o'tgan qarzlarini restrukturizatsiya qilishni tizimli yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin;

mamlakatimizdagi monetizatsiya darajasini xalqaro andozalarga mos holda oshirish orqali pul-qarz munosabatlarini chuqurlashtiradi va moliyaviy bozorlarni faollashtiradi.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish to'lov aylanmasining samaradorligini oshirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi xududida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kredit berish tijorat banklari tomonidan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi Qonun asosida va boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Tijorat banklari tomonidan kreditlar, o'z kapitali va mustaqil balansiga, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga beriladi. Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, ularning mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beradilar.

Tijorat banklarida kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. Kreditning maqsadliliigi.
2. Kreditning muddatliliigi.
3. Kreditning qaytarilishligi.
4. Kreditning ta'minlanganligi.
5. Kreditning to'lovliliigi.

Qaytarilish tamoyili kreditning mazmunini ifodalab, bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari yana bankka qaytarilishi lozim. Qaytarib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qaytarish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa tovar-pul munosabatlarining iqtisodiy kategoriyalaridan farqi bo'lgan iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib turadi. Qaytarilish kreditning ajralmas atributi hisoblanadi.

Muammoli kreditlar tahlilida muammoli kreditlarning darajasi va dinamikasiga, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasina hamda kreditlarning daromadlilikiga baho berish muhim o'rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli kreditlar bank sektorida uchrash mumkin bo'lgan eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada ko'plab tadqiqotlar va ilmiy ishlar olib borilgan. Jumladan, Smith va Jones (2015) o'zlarining tadqiqotlarida muammoli kreditlarni oldini olishda bank xodimlarining malakasining muhimligini ta'kidlashadi. Ular, xodimlarning moliyaviy tahlil qobiliyatlarini oshirish orqali kredit berish jarayonining sifatini yaxshilash mumkinligini ko'rsatib berishgan[1].

Lee va Nguen (2019) esa kredit tahdidlarini boshqarishda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Ular, bu texnologiyalar yordamida banklar kredit qarzidorlarining xavf darajasini aniqroq baholay olishlari va shu tariqa muammoli kreditlarni kamaytirishda samarali natijalarga erishishlari mumkinligini isbotlashgan[2].

Prof. J.Sinkining (2017) xulosasiga ko'ra, kredit olishga talabgor bo'lgan mijozning pul oqimini tahlil qilish kredit riskini pasaytirish muhim omili bo'lgani holda, kredit portfelining sifatini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi[3].



A.Mian va A.Safining (2013) xulosasiga ko'ra, banklar tomonidan uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolining yuqori ekanligi ularning o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlarini firmalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklanganligi bilan izohlanadi[4].

N.Likovaning (2013) xulosasiga ko'ra, muammoli kreditlarning yuzaga kelishini oldindan aniqlash kredit riskini boshqarishning nisbatan ishonchli va samarali usuli hisoblanadi[5].

D. Do'sanov (2024) tijorat banklari innovatsion loyiha ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni kredit mablag'lari bilan ta'minlab, mamlakatimizda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda acociy pog'ona vazifacini bajaradi va shu orqali, jamiyatda umumiy makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga o'z hissasini qo'shadi ammo kreditlarni ajratishda risklarni hisobga olish va monitoring qilish juda muhimligini aytib o'tgan[6].

F. Xolmamatov (2021) so'zlariga ko'ra, agar berilgan kredit muammoli taminotga ega bo'lsa va ushbu taminotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam bo'lsa, bu holda ushbu kredit muammoli kredit hisoblanadi, substandart va undan past tasniflanuvchi kreditlar muammoli kreditlar toifasiga kiradi[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish, ularning oldini olish va mavjud tizimlarni takomillashtirish bo'yicha samarali usullarni aniqlash maqsadida turli ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asoslarini bank ishi, moliya boshqaruvi, risklarni boshqarish va iqtisodiy xavfsizlik yo'nalishlaridagi ilg'or ilmiy qarashlar tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga asoslanib banklarda kredit amaliyotlari samaradorligining pasayib borishi quyidagi holatlar ta'siri natijasi degan fikrga keldik:

1. Mijozlarning tarmoq xususiyatiga qarab kreditlashning shakl va usullarini tatbiq etishda, shuningdek, qarzorning kredit to'loviga layoqatligini aniqlashda bank xodimining malaka va tajribasining yetishmasligi.

2. Bank kredit qo'mitalari qarorlari sifatining pastligi.

3. Kreditlashning ta'minlanganlik tamoyilini amalga oshirishda xodimlarda malaka va tajribalarining yetishmasligi.

4. Kredit munosabatlarida mijoz manfaatlariga rahna soluvchi shartnoma shartlarining amaliyotga tatbiq etilayotganligi.

5. Qarzdor ustidan yetarlicha monitoring o'rnatilmaganligi.

6. Kredit munosabatlarida majburiyat ijrosini ta'minlashga doir milliy qonunchilik hujjatlari qoidalarini takomillashtirishning zarurligi (1-jadval).

1-jadval. Muammoli aktivlarni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar.

No	Ta'sir etuvchi omillar	Darajasi (%)
	Ichki omillar	67 %
1	Ta'minot yetishmasligi	22 %
2	Ssuda buyurtmasini o'rganishda axborotni noto'g'ri baholash	21 %
3	Operatsiya nazoratining zaifligi hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlanmaslik va ular yuzasidan tegishli choralar ko'rmaslik	18 %
4	Garov ta'minoti sifatining pastligi	5 %
5	Shartnomada ko'rsatilgan ta'minotni olish imkoniyati yo'qligi	1 %
	Tashqi omillar	33 %
6	Kompaniyaning bankrot bo'lishi	12 %
7	Kreditorlarning qarzlarni qaytarishni talab qilishi	11 %
8	Kompaniya'ning bozorda o'z o'rnini yo'qotishi va ichki ijtimoiy muammolar	6 %
9	O'g'irlik, muttahamlik	4 %

Manba: Tog'ayev, S., Ochilova, I., & Amanov, A. (2023). Tijorat banklarida muammoli aktivlarning yuzaga kelish sabablari va ularga ta'sir yetuvchi omillar. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(6), 80–85. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss6-pp80-85>



Pul mablag'larini kredit sifatida berishda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, quyidagi shartlarga rioya qilinishi talab etiladi: muddatlilik; to'lovlilik; qaytarishlik; ta'minlanganlik va maqsadlilik. Tabiiyki, mazkur shartlarni to'liq bajarilishi berilgan kredit bo'yicha riskning oshishiga yo'l qo'ymaydi. Kreditning maqsadlilik uning mijoz faoliyatining bankka ma'lum bo'lgan va bank tomonidan ma'qullangan yo'nalishga berilishini anglatadi.

Iqtisodiy barqarorlikka erishish, aholi farovonligi va kuchli ijtimoiy himoyani ta'minlash va asosiysi raqobatdosh iqtisodiyotni barpo etishda bank kreditlari bilan bir qatorda kredit riskini baholash ham muhim o'rin tutadi (2-jadval).

2-jadval. Kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuv.

Reyting	Riskka tortish koeffitsientlari (%)			
	Davlat va Markaziy banklar	Kredit tashkilotlari (1-variant)	Kredit tashkilot (1-variant) (qisqa muddatli talablar)	Yuridik shaxs
AAA dan A gacha	0	20	20 (20)	20
A+ dan A – gacha	20	50	50 (20)	50
VVV + dan VVV – gacha	50	100	50 (20)	100
VV + dan VV – gacha	100	100	100 (50)	100
V + dan V – gacha	100	100	100 (50)	150
V – past	150	150	150 (150)	150
Reytingsiz	100	100	50 (20)	100

Manba: Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.

2 - jadvalda keltirilgan ma'lumotlar "standartlashgan yondashuv"ning mazmunini aniq ko'rsatadi. Ya'ni ushbu yondashuvda kredit riskining darajasi kredit oluvchining kredit reytingiga qarab belgilanadi.


Masalan, kredit reytingi AAA dan AA gacha bo'lgan kompaniyalarga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 foizga teng; kredit reytingi V – dan past bo'lgan kompaniyalarga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 foizga teng. Tijorat banklarining faoliyatidagi kredit riskining darajasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri – bu kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalarining darajasidir.

Muammoli kreditlar banklarga ikki xil yo'l bilan iqtisodiyotga bosim o'tkazadi:

Birinchisi, muammoli kreditlar banklarning rentabelligini pasaytiradi, chunki kreditlash orqali keladigan daromadlarni kamaytiradigan yo'qotishlarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchisi, bank yo'qotishlarga tayyorgarlik ko'rish uchun zaxiralarni yaratishlari kerak bo'ladi. Ya'ni bu shuni anglatadiki, banklar yo'qotishlarni qoplash uchun pulni tejashlari kerak bo'ladi. Bu esa, banklarning yangi kreditlar berish imkoniyatini kamaytiradi va natijada uning foydasi kamayishiga olib keladi. Shuning uchun banklarda kredit risklarini boshqarish, kreditning qaytarilishini ta'minlaydi. Bu bo'yicha dunyo mamlakatlarida qo'llaniladigan usullarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

So'nggi 5 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 3,1 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 3,7 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston banklari kredit portfeli (valyutalar kesimida), foiz hisobida.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-2022 -yillardagi statistik byullenten ma'lumotlari

Valyutalar kesimida kredit portfelining 2022-yilda o'sishi milliy valyutada 25 foizni tashkil etgan bo'lsa, xorijiy valyutada kredit portfeli 14 foizga o'sgan. Bugungi kunda, banklarning jami kredit portfelining dollarlashuv darajasi 47 foizni tashkil etib, 2022-yil boshiga nisbatan 3 foiz bandga pasaygan.

Mamlakatimizda kreditlash amaliyotini tez sur'atlarda kengaytirayotgan banklarda to'lov qobiliyati pasayib, muammoli kreditlar hajmi orttiradi. Shu sababli, banklar kreditlar o'sishida juda ham ehtiyot bo'lishlari kerakligi bu kelajakdagi bank faoliyatiga tahdid solishi mumkinligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, banklar bank kapitalining yetarliligi koeffitsientini saqlab qolish, bank tizimining Bazel talablarini bajarish borasidagi ko'rsatmalarga muvofiq ravishda faol o'sib boruvchi kreditlash sifatida ko'rib chiqishlari kerak bo'ladi.

2023-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) davlat ulushi mavjud banklarda o'rtacha 3,6 foizni hamda boshqa turdagi banklarda mazkur ko'rsatkich o'rtacha 2,1 foizni tashkil etgan.

Agar tijorat banklarida ishonchli, to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan mijozlar guruxi to'g'ri shakllantirilsa, ushbu holat bank tomonidan regress huquqsiz xujjatlarni sotib olishga asoslangan faktoring kreditlari hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. O'z navbatida, mazkur shart asosida berilgan faktoring kreditlari tijorat bankiga katta daromad keltiradi (3-jadval).

3-jadval. Ayrim tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida 2024-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot mlrd.so'm.

№	Bank nomi	Kredit portfel	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Davlat ulushi mavjud banklar				
1.	Agrobank	43 846	1 685	3,8%
2.	Asaka bank	36 742	1 707	4,6%
3.	Xalq banki	21 666	2 584	11,9%
4.	Mikrokreditbank	13 319	635	4,8%
5.	Aloqa bank	9 162	186	2,0%
6.	Poytaxt bank	74	0,7	1,0%
7.	O'zagroeksportbank	6,2	6,0	96,3%



Boshqa banklar				
8.	Trast bank	3 496	132	3,8%
9.	Tenge bank	2 474	181	7,3%
10.	O'zKDB bank	2 032	0,0	0,0%
11.	Garant bank	1 132	87	7,7%
12.	Ravnaq bank	341	244	71,6%
13.	Madad invest bank	173	34	19,9%

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Bizga ma'lumki, qishloq ho'jaligi sohasida ishlab chiqarish mavsumiy harakterga ega bo'lib, ob-havoni yomon kelishi oqibatida mo'ljallangan hosil etishtirilmasligi mumkin. Natijada qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ishlab chiqarish rejalarini bajara olmaydilar. Bu esa, o'z navbatida, ushbu korxonalar tomonidan olingan bank kreditlarining qaytmaslik ehtimolini kuchaytiradi.

Kredit ta'minotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tmoqchimiz:

1. Banklarda mijozlarining asosiy qismida yuqori likvidli garov ob'ektlarining yetishmasligini hisobga olib, banklarda mijozlarning kredit to'loviga layoqatligini baholashning moliyaviy koeffitsientlar tizimidan to'liq foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

2. Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha xarajatlar kredit oluvchilar tomonidan to'lanadi.

3. Yetarli ta'minotni yo'lga qo'yish. Bunday metod bankka berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit ta'minoti turlariga mulk garovi, kafillik, kafolat kabilar kiradi. Kredit riskidan himoya qilishda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan yetarli ta'minotni jalb qilinishiga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdorning kreditga layoqatligini tahlil qilishga qaratiladi. Chunki investitsiya loyihasi uchun mablag'lar kredit kelishuviga muvofiq qaytarilishini hisobga olib beriladi[8].

4. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berishda asosiy e'tiborni kredit oluvchilarning pul oqimini baholashga va to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan uchinchi shaxslarning kafilligini ta'minot sifatida olishga qaratish lozim. Uchinchi shaxs daromad manbaini yo'qotgan sharoitda mikrokreditni qaytarish davlatning Kredit kafolati fondi mablag'lari hisobidan qaytarilishi lozim. Aks holda, tijorat banklarining mikrokreditlash amaliyotidagi kredit riskining darajasi sezilarli darajada oshib ketishi mumkin.

5. Bank tomonidan kreditni qaytmaslik hatarini sug'urta qilish sharti bilan kredit berayotganda sug'urta tashkilotining moliyaviy jihatdan barqaror ekanligini e'tiborga olish g'oyat katta ahamiyatga ega.

6. Bank kredit ta'minoti ustidan monitoring o'rnatishni ta'minot hatarini oldini olishning eng birinchi sharti deb qarash lozim. Chunki har qanday tajribali bank xodimlari bilan ishlamanmasin, ular tomonidan monitoring ishlari olib borilmas ekan ta'minot hatarini kamaytirish mumkin emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha mamlakatimiz tijorat banklarida muammoli kreditlar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

bank mijozning kredit siyosati va kreditlash tamoyillari shartlariga rioya etilishini nazorat qilishi hamda kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash, ularni tahlil qilishi;

kredit arizasini ko'rib chiqilayotgan davrda mijoz tomonidan bankka taqdim etayotgan hujjatlar to'plamining to'liqligini va ularning to'g'riligini tekshirish hamda banklarga kredit uchun kelib tushgan ariza bo'yicha mijozning xarakteriga, uning moliyaviy ahvoriga, biznes hamkorlari orasidagi mavqeiga va ushbu sohadagi tajribasiga asosiy e'tiborni qaratish;

- korxonaning mol-mulkini baholashda bankning o'zi ham mulkni mustaqil e-baholash tizimida baholashi lozim hamda kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni doimiy ravishda nazorat qilib borish;

- mijozlarga beriladigan kreditlarning chegaraviy miqdorini aniqlash maqsadida bir vaqtning o'zida moliyaviy marja ko'rsatkichidan, moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichidan va joriy likvidlik ko'rsatkichidan foydalanish zarur;

- uchinchi, xalqaro reyting agentliklarining suveren kredit reytingiga ega bo'lgan kompaniyalarga xorijiy valyutalarda berilgan kreditlar bo'yicha kredit riskini baholashda "standartlashgan yondashuv"dan foydalanish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Smith, A., & Jones, M. (2015). Enhancing staff training to improve the quality of lending decisions. Journal of Banking and Finance Management, 27(2), 124-139.



2. Lee, D., & Nguyen, T. (2019). The role of artificial intelligence and big data in managing credit risks. *Financial Markets and Portfolio Management*, 33(4), 409-424
3. Синки Дж. (2017) Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблицер. – С. 485-486.
4. Mian A., Rao K., Sufi A. (2013) Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//*Quarterly Journal of Economics*. –128(4). –pp. 1687 -1726.
5. Лыкова Н.М. (2013) Раннее обнаружение проблемных кредитов // *Банковское дело*. – Москва, - №8. - С. 51.
6. Дўсанов Д. (2024) Хорижий давлатлар банклари инновацион лойиҳалардаги муаммоли кредитлар ҳолати ва уларни такомиллаштириш йўллари // *экономика, менеджмент, сервис: Современные проблемы и перспективы*. – Т. 4. – С. 17-20.
7. Фарҳоджон Кубаевич Холмаматов (2021) Республикамиз банк тизимида муаммоли кредитларнинг амалий ҳолати ва уларни камайтириш йўллари // *Scientific progress*. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/respublikamiz-bank-tizimida-muammoli-kreditlarning-amaliy-olati-va-ularni-kamaytirish-y-llari>.
8. Сайфиддинов И. Тўлов усуллари–тўлов айланмасининг муҳим элементи // *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*. – 2024. – Т. 4. – №. Maxsus son. – С. 301-308.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
